



## Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining nokommunikativ kasbiy kompetensiyalari: mazmuni va tarkibiy komponentlari

**Boltaboyeva Umidaxon Mansurjonovna** –  
Qo'qon davlat universiteti professori  
E-mail: boltaboyeva.umidaxon19@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining nokommunikativ kasbiy kompetensiyalari tushunchasini ilmiy-pedagogik jihatdan chegaralash va uning tarkibiy komponentlarini asoslash masalasi yoritiladi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuvga oid o'zbek, rus va ingliz tilidagi manbalar, tasviriy san'at o'qituvchisining professional tayyorgarligini o'rgangan dissertatsiya va maqolalar qiyosiy tahlil qilindi. Nokommunikativ kasbiy kompetensiyalar bevosita og'zaki yoki yozma muloqotni tashkil etishga emas, balki tasviriy mahsulotni idrok etish, tasavvur qilish, kompozitsion va rang yechimini topish, badiiy material va texnikalarni qo'llash, ijodiy loyihalash hamda o'z faoliyatini refleksiv baholashga yo'naltirilgan integrativ kasbiy imkoniyatlar majmui sifatida talqin qilindi. Natijada badiiy-perseptiv, vizual-fazoviy, kompozitsion, tasviriy-texnologik, kreativ-loyihaviy va refleksiv-baholash komponentlaridan iborat ishchi tuzilma taklif etildi.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, bo'lajak o'qituvchi, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, nokommunikativ kompetensiya, badiiy idrok, vizual-fazoviy tafakkur, kompozitsiya, refleksiya.

## Некоммуникативные профессиональные компетенции будущих учителей изобразительного искусства: содержание и структурные компоненты

**Аннотация.** В данной статье рассматривается проблема научно-педагогического разграничения понятия некоммуникативных профессиональных компетенций будущих учителей изобразительного искусства и обоснования их структурных компонентов. В исследовании проведён сравнительный анализ узбекоязычных, русскоязычных и англоязычных источников, посвящённых компетентностному подходу, а также диссертационных исследований и научных статей, изучающих профессиональную подготовку учителей изобразительного искусства. Некоммуникативные профессиональные компетенции интерпретируются как совокупность интегративных профессиональных возможностей, направленных не непосредственно на организацию устной или письменной коммуникации, а на восприятие художественного продукта, формирование образного представления, поиск композиционного и цветового решения, применение художественных материалов и техник, творческое

проектирование, а также рефлексивную оценку собственной деятельности. В результате предложена рабочая структура, включающая художественно-перцептивный, визуально-пространственный, композиционный, изобразительно-технологический, креативно-проектный и рефлексивно-оценочный компоненты.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, будущий учитель, компетенция, профессиональная компетентность, некоммunikативная компетенция, художественное восприятие, визуально-пространственное мышление, композиция, рефлексия.

## **Non-communicative professional competencies of prospective visual arts teachers: content and structural components**

**Annotation.** This article addresses the scientific and pedagogical delineation of the concept of non-communicative professional competencies of prospective visual arts teachers and the substantiation of their structural components. The study conducted a comparative analysis of Uzbek-, Russian-, and English-language sources on the competency-based approach, as well as dissertations and scholarly articles devoted to the professional training of visual arts teachers. Non-communicative professional competencies are interpreted as a set of integrative professional capacities aimed not directly at organizing oral or written communication, but at perceiving artistic products, forming visual representations, developing compositional and color solutions, applying artistic materials and techniques, engaging in creative design, and reflectively evaluating one's own activity. As a result, a working structure comprising artistic-perceptual, visual-spatial, compositional, visual-technological, creative-project, and reflective-evaluative components is proposed.

**Keywords:** visual arts, prospective teacher, competence, professional competence, non-communicative competence, artistic perception, visual-spatial thinking, composition, reflection.

### **KIRISH**

Oliy pedagogik ta'limda natijani faqat o'zlashtirilgan nazariy bilimlar hajmi bilan baholash yetarli bo'lmay qoldi. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy vazifani mustaqil hal qila olishi, turli vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni birlashtira bilishi, ijodiy qaror chiqarishi hamda o'z ishini tahlil qilishi kompetensiyaviy yondashuvning markaziy talabiga aylandi. Tasviriy san'at o'qituvchisini tayyorlashda bu talab yanada murakkab mazmun kasb etadi, chunki ushbu mutaxassis bir vaqtning o'zida pedagogik, badiiy-amaliy va metodik faoliyatni uyg'unlashtiradi. Yuldasheva bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining badiiy-estetik kompetentligini izohlar ekan, uning tuzilmasida bilim, malaka, ko'nikma, motivatsiya va shaxsiy xususiyatlar o'zaro bog'lanishini ko'rsatadi [1, 7-b.]. Muallifning "badiiy-estetik bilim, malaka, ko'nikma" haqidagi qisqa ifodasi [1, 7-b.] kasbiy natijani bir komponent bilan chegaralab bo'lmashligini anglatadi. Shu nuqtadan kelib chiqib, dissertatsiya mavzusida qo'llanayotgan "nokommunikativ kasbiy kompetensiyalar" atamasi tayyor ilmiy kategoriya sifatida emas, tasviriy san'at o'qituvchisining bevosita muloqotdan tashqarida namoyon bo'ladigan kasbiy-harakatli imkoniyatlarini ajratish uchun operatsion tushuncha sifatida asoslanishi lozim.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot nazariy-analitik dizaynda olib borildi. Manba bazasiga O'zbekistonda bajarilgan badiiy-estetik va kreativ kompetentlikka oid tadqiqotlar, Rossiya ilmiy maktabida

tasviriy san'at o'qituvchisining professional kompetentligini o'rgangan maqola va dissertatsiyalar, shuningdek, ingliz tilida e'lon qilingan art-teacher education yo'nalishidagi ishlar kiritildi. Kontent-tahlilda "professional competence", "artistic competence", "creative activity", "reflection", "subject competence", "visual perception" kabi birliklar kasbiy faoliyat mazmuni bilan bog'lab qiyoslandi. Paydukov professional kompetentlikni tasviriy san'at o'qituvchisi faoliyatining tayanchi sifatida talqin qilib, uning tarkibida kognitiv, motivatsion va faoliyat-amaliy qismlarni ajratadi [3, 63-b.]. Uning "является фундаментом профессиональной деятельности" degan ta'rifi [3, 63-b.] kompetensiyaning amaliy faoliyat bilan uzviyligini ta'kidlaydi. Ingliz tilidagi tadqiqotlarda ham badiiy-pedagogik tayyorgarlik o'zaro bog'liq tizim sifatida qaraladi. Kamak, Rakhmetova va Imankulova future fine art teacher tayyorlashda badiiy ta'lim va pedagogik-mutaxassislik metodlarini "a closely related educational process" deb belgilaydi [4, 1-b.]. Qiyosiy tahlil jarayonida kommunikativ xususiyatga ega bo'lmagan yoki kommunikatsiya ikkilamchi o'rin tutadigan professional harakatlar alohida kodlandi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Tahlil shuni ko'rsatdiki, mavjud tadqiqotlarda tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetentligi ko'pincha keng integrativ konstrukt sifatida yoritiladi; uning ichida badiiy-amaliy, metodik, loyihaviy, tadqiqotchilik va refleksiv yo'nalishlar birgalikda keladi. Terentyeva maxsus fanlarni o'rganish jarayonidagi professional-pedagogik kompetentlik modelida maqsad, vazifa, tamoyil, tashkiliy shakl, metod, vosita va natijani o'zaro bog'langan tizim sifatida beradi [6, 156–162-b.]. Avezov esa tasviriy san'at o'qituvchisining kreativ kompetentligida tasviriy-obrazli tafakkur, tasavvur, ijodiy faollik va o'zini boshqarish kabi sifatlarni alohida ko'rsatadi [2, 156-b.]. Mazkur qarashlar asosida nokommunikativ kasbiy kompetensiyalarni oltita tarkibiy blokda ifodalash mumkin. Badiiy-perseptiv komponent san'at asari, natura va vizual muhitdagi shakl, nisbat, ritm, rang, faktura hamda obrazli mazmunni idrok etish va farqlashni qamrab oladi. Vizual-fazoviy komponent predmetning hajmi va konstruksiyasini tasavvur qilish, perspektiv aloqalarni ko'rish, fazoviy munosabatlarni ikki o'lchamli tasvirda adekvat ifodalash bilan bog'liq. Kompozitsion komponent tasvir elementlarini maqsadli joylashtirish, dominant, muvozanat, kontrast, ritm va yaxlitlik qonuniyatlaridan foydalanishni anglatadi. Tasviriy-texnologik komponent material, asbob va texnikani vazifaga mos tanlash, rangtasvir, qalamtasvir, grafika yoki boshqa texnikalarda ish jarayonini rejalashtirish hamda xavfsiz va sifatli bajarishni ifodalaydi. Kreativ-loyihaviy komponent badiiy muammoni anglash, eskiz variantlarini ishlab chiqish, original yechim tanlash va yakuniy mahsulotga olib boruvchi ijodiy qarorlar zanjirini boshqarishni qamrab oladi. Refleksiv-baholash komponenti esa bajarilgan ishni mezon asosida tahlil qilish, kamchilik sabablarini aniqlash, tuzatish kiritish va keyingi faoliyat uchun xulosa chiqarishni bildiradi.

Mazkur komponentlar oliy ta'limdagi maxsus fanlar mazmuni bilan ham bevosita bog'lanadi. Qalamtasvir mashg'ulotlarida badiiy-perseptiv va vizual-fazoviy komponentlar, rangtasvirda badiiy-perseptiv hamda tasviriy-texnologik komponentlar, kompozitsiyada esa kompozitsion va kreativ-loyihaviy komponentlar yetakchi bo'ladi. Biroq bu taqsimot mutlaq emas: masalan, qalamtasvirda ham kompozitsion qaror, rangtasvirda ham refleksiv tahlil, kompozitsiyada ham material bilan ishlash texnologiyasi zarur. Shu bois o'quv rejasidagi fanlarni kompetensiyalarga bir martalik "biriktirish" emas, bir kompetensiyaning turli fanlarda qayta-qayta, lekin murakkablashib boruvchi vazifalar orqali rivojlanishini ko'zda tutuvchi spiral tamoyil maqsadga muvofiq. Bunday mantiq talabning alohida mashqni muvaffaqiyatli bajarishi bilan kasbiy tayyorgarlikni tenglashtirish xatosidan saqlaydi. Kompetensiya bir xil usulni takrorlash emas, yangi vaziyatda mos badiiy vositani tanlash, o'z qarorini nazorat qilish va natijani sifat mezonlari bilan bog'lash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Nokommunikativ komponentlarning yana bir xususiyati ularning natijasi ko'pincha vizual mahsulotda iz qoldirishidir. Perspektiv xato vizual-fazoviy tayyorgarlikdagi muammoni, ranglarning "iflos" aralashishi texnologik boshqaruvdagi bo'shliqni, kompozitsion markazning yo'qligi esa elementlar ierarxiyasini anglashdagi kamchilikni ko'rsatishi mumkin. Biroq yakuniy mahsulotni sabab bilan to'g'ridan-to'g'ri tenglashtirish ham noto'g'ri: bir xil kamchilik turli sabablar natijasida paydo bo'ladi. Shuning uchun dissertatsiya doirasida kompetensiyani aniqlashda mahsulot tahlili jarayon kuzatuv va talabaning refleksiv izohi bilan to'ldirilishi lozim. Bu yondashuv keyingi diagnostik modelning ham nazariy poydevorini yaratadi.

Taklif qilinayotgan tuzilmaning muhim tomoni shundaki, u "nokommunikativ" atamasini "kommunikatsiyaning mutlaq yo'qligi" ma'nosida talqin qilmaydi. Tasviriy san'atning o'zi vizual ma'no uzatish xususiyatiga ega; shu sababli atama faqat kasbiy harakatning yetakchi mexanizmini ajratadi. Masalan, o'quvchi bilan asar yuzasidan suhbat qurish kommunikativ kompetensiyaga tegishli bo'lsa, kompozitsion markazni aniqlash, tonal munosabatni yechish yoki rang uyg'unligini topish nokommunikativ kasbiy komponent sifatida qaraladi. Nusharov texnologiya, metod va predmet kompetensiyasining integratsiyasi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi professional rivojida muhimligini qayd etadi [5, 1–3-b.]. Bu holat taklif qilinayotgan konstrukt predmet faoliyatidan ajratib qo'ymaslik, aksincha, uni kasbiy tayyorgarlikning badiiy-amaliy yadrosi sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

#### 1-jadval.

#### Nokommunikativ kasbiy kompetensiyalarning ishchi tarkibi

| Komponent           | Asosiy mazmun                                                        |
|---------------------|----------------------------------------------------------------------|
| Badiiy-perseptiv    | Vizual belgilarni idrok etish, farqlash va badiiy mazmunni anglash   |
| Vizual-fazoviy      | Shakl, hajm, perspektiva va fazoviy munosabatlarni tasavvur qilish   |
| Kompozitsion        | Elementlarni maqsadli tashkil etish va yaxlit vizual yechim yaratish |
| Tasviriy-texnologik | Material, asbob va texnikani vazifaga muvofiq qo'llash               |
| Kreativ-loyihaviy   | Variantlar ishlab chiqish va original badiiy qaror yaratish          |
| Refleksiv-baholash  | Natijani mezon asosida tahlil qilish va korreksiya kiritish          |

Nokommunikativ kasbiy kompetensiyalarni alohida tadqiqot obyekti sifatida belgilashning ilmiy foydasi ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, u tasviriy san'at o'qituvchisining amaliy-badiiy tayyorgarligini umumiy pedagogik kompetentlik ichida "erib ketish"dan saqlaydi. Ikkinchidan, diagnostika jarayonida kuzatiladigan aniq mahsulot va harakatlarni belgilash imkonini beradi. Masalan, rangtasvir ishida rang munosabatlarini aniqlash, qalamtasvirda proporsiyani ushlash, kompozitsiyada vizual markazni tashkil qilish yoki ijodiy loyihada variantlar ishlab chiqish kuzatiladigan va baholanadigan ko'rsatkichlardir. Shu bilan birga, komponentlar o'rtasida qat'iy devor yo'q: badiiy idrok kompozitsion qarorga, kompozitsion qaror texnologik bajarishga, bajarish esa refleksiv tahlilga ta'sir ko'rsatadi. Demak, konstrukt tizimli va dinamik xususiyatga ega.

Ilmiy adabiyotlarda professional kompetentlikning motivatsion komponenti ko'p uchraydi [3, 63-b.; 5, 2–3-b.]. Mazkur maqolada motivatsiya alohida nokommunikativ kompetensiya sifatida emas, barcha komponentlarning rivojlanishini harakatga keltiruvchi transversal omil sifatida qabul qilindi. Xuddi shuningdek, kommunikativ kompetensiya ham modeldan chiqarib tashlanmaydi; u darsni tashkil qilish, tushuntirish, tanqidiy fikr almashish va pedagogik hamkorlikda zarur bo'lgan qo'shni tizimdir. Bunday chegaralash dissertatsiya konsepsiyasiga metodologik aniqlik beradi: tadqiqotning predmeti bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining barcha kasbiy kompetensiyalari emas, balki badiiy-perseptiv, vizual-fazoviy, kompozitsion, tasviriy-texnologik, kreativ-loyihaviy va refleksiv-baholash faoliyatlarida ustuvor namoyon bo'ladigan kompetensiyalar majmuidir. Shunday yondashuv

keyingi bosqichda mezon, ko'rsatkich, topshiriq va baholash rubrikalarini ishlab chiqishga asos yaratadi. Mazkur operatsion ta'rif ilmiy ishda terminologik ehtiyotkorlikni ham talab qiladi. "Nokommunikativ" tushunchasi pedagogik muloqotni inkor etmaydi; u faqat tadqiqotda o'lchanayotgan faoliyatning asosiy yo'nalishini belgilaydi. Shuning uchun dissertatsiya matnida atama ilk qo'llangan joyda uning chegarasi va boshqa kompetensiyalar bilan kesishish nuqtalari aniq ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

## **XULOSA**

Tadqiqot natijasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining nokommunikativ kasbiy kompetensiyalari tasviriy-badiiy faoliyatni idrok etish, rejalashtirish, bajarish, ijodiy o'zgartirish va refleksiv baholashni ta'minlaydigan, bevosita nutqiy muloqot yetakchi mexanizm bo'lmagan integrativ kasbiy imkoniyatlar majmui sifatida operatsion ta'riflandi. Uning badiiy-perseptiv, vizual-fazoviy, kompozitsion, tasviriy-texnologik, kreativ-loyihaviy va refleksiv-baholash komponentlari ajratildi. Mazkur tuzilma mavjud professional, badiiy-estetik va kreativ kompetentlik konsepsiyalariga zid emas; aksincha, ularning tasviriy-amaliy segmentini tadqiqot maqsadiga muvofiq aniqlashtiradi. Keyingi metodik ishda har bir komponentni aniq topshiriqlar, indikatorlar va darajalar bilan bog'lash ilmiy jihatdan zarur hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Yuldasheva N.I. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 58 b.
2. Avezov Sh. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari kreativ kompetentligini shakllantirish muammosining nazariy tahlili // Pedagogik mahorat. – 2021. – Maxsus son. – B. 155–157.
3. Пайдуков П.В. Профессиональная компетентность будущих учителей изобразительного искусства // Перспективы науки. – 2012. – № 2(29). – С. 62–65.
4. Kamak A.O., Rakhmetova N.B., Imankulova L. The Requirements for the Formation of Future Fine Art Teacher's Pedagogical Competence // Indian Journal of Science and Technology. – 2016. – Vol. 9, Issue 22. – P. 1–7. DOI: 10.17485/ijst/2016/v9i22/95557.
5. Nusharov B.B. Structure of Professional Competence Development of Future Fine Art Teachers: Integration of Technology, Method and Competence // Emergent Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. – 2024. – Vol. 3, No. 1. – P. 1–12. DOI: 10.47134/emergent.v3i1.42.
6. Терентьева Т.П. Модель процесса формирования профессионально-педагогической компетентности у будущих учителей изобразительного искусства в процессе изучения специальных дисциплин // Вестник ЧГПУ им. И.Я. Яковлева. – 2013. – № 3(79). – С. 156–162.